

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA LEKSIKOLOGIYA VA UNING TARKIBIY QISMLARI

Isoqulova G.O.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti. Talaba

Xakimboyeva O.K.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti. O'qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada leksikologiya bo'limlari mavzusiga oid ma'lumotlar yoritib berish maqsad qilingan. Mazkur tadqiqot ishida leksikologiyaning nazariy asoslari, tilshunoslik tizimidagi o'rni hamda uning asosiy yo'nalishlari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, tilning lug'aviy boyligi, so'zlarning ma'nosi, ularning kelib chiqishi va qo'llanish doirasiga alohida e'tibor qaratilib, mazkur jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Xususan, semasiologiya, onomasiologiya, etimologiya, frazeologiya, dialektologiya, leksikografiya, onomastika, terminologiya va neologiya kabi bo'limlarning vazifalari ilmiy asosda izohlanadi.

Kalit so'zlar: leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, frazeologiya, leksikografiya, terminologiya, neologiya.

Til insoniyatning eng muhim aloqa vositasi bo'lib, uning boyligi va rivojlanganlik darajasi lug'at tarkibi bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy tilshunoslikda leksikologiya faqat so'zlar to'plamini emas, balki tilni bir butun tizim sifatida o'rganuvchi soha hisoblanadi. Shuning uchun ham bu soha bir necha bo'limlarga bo'lib o'rganiladi. Jumladan, so'z ma'nosini tadqiq etuvchi semasiologiya, so'z tarixini yorituvchi etimologiya, tildagi barqaror birikmalar bilan shug'ullanuvchi frazeologiya, yangi paydo bo'layotgan qatlamni o'rganuvchi neologiya kabi bo'limlar shular jumlasidandir.

Leksikologiya tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlarni ma'lum tartib va qonuniyatlar asosida o'rganadi. Quyidagi uning asosiy bo'limlarini tahlil qilamiz:

Semasiologiya so'zning ichki mohiyatini, ya'ni uning nima anglatishini o'rganadi. Shuningdek **denotativ** (asosiy) va **konnotativ** (qo'shimcha ma'no) ma'nolari farqlanadi. Misol: "Temir" so'zi o'z ma'nosida metalni anglatadi. Biroq "Temir intizom" yoki "Temir iroda" birikmalarida u "mustahkam, qat'iy" degan ko'chma ma'no kasb etadi.

Onomasiologiya bo'limi predmet va hodisalarga qanday nom berilishi jarayonini tadqiq qiladi. Nima uchun aynan shu predmet shunday nomlangan degan savolga javob izlaydi. Misol: "Qalam" so'zi arabcha bo'lib, u aslida yunoncha "kalamos"(qamish) so'zidan olingan. Chunki qadimda qamishdan qalam yasalgan.

Frazeologiya. Tilda so'zlar doimo alohida ishlatilmaydi, ba'zan ular birikib, butunlay yangi bir ma'noni ifodalaydi. Misol: "Yuragi chiqib ketdi" (juda qo'rqdi), "Qulog'iga quymoq" (yaxshilab uqtirmoq). Bu birliklarni qismlarga bo'lib bo'lmaydi.

Leksikografiya. Leksikologiyaning amaliy qismi bo'lib, yuqoridagi barcha nazariy bilimlarni lug'at shakliga keltiradi. Bunga esa A. Madvaliyev tahriri ostidagi 5 jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" eng yorqin misol bo'la oladi. Misol: Lug'atda "Kitob" so'ziga quyidagicha izoh beriladi: Varaqlangan, muqovalangan, bosma yoki qo'lyozma matn shaklidagi asar.

Etimologiya bo‘limi so‘zlarning kelib chiqish tarixini, ularning birlamchi shakli va ma’nosini o‘rganadi. Etimologik tahlil so‘zning qaysi tilga mansubligi (o‘z qatlam yoki o‘zlashma) aniqlab beradi. Misol: “Maktab” so‘zi arabcha “kataba” (yozmoq) o‘zagidan olingan bo‘lib, “yozish joyi” degan ma’noni anglatadi. “Bilim” so‘zi esa sof turkiy o‘zak – “bil-“ fe‘lidan yasalgandir.

Onomastika. Tilshunoslikning atoqli otlarni o‘rganuvchi bo‘limi. U bir necha tarmoqlarga bo‘linadi: Antroponimika (kishi ismlari), Toponimika (joy nomlari) va boshqalar. Misol: “Toshkent” toponimi “tosh” va “kent” (shahar) so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, hududning tarixiy-geografik xususiyatini aks ettiradi.

Terminologiya. Muayyan, fan, texnika yoki kasb-hunar sohasiga oid maxsus so‘zlar(terminlar) tizimini o‘rganadi. Terminlar oddiy so‘zlardan farqli o‘laroq, emotsionallikdan xoli va ma’nolilikka intilishi bilan ajralib turadi. Misol: “Morfema”, “Fonetika”, “Sintaksis” – tilshunoslik sohasining terminlaridir.

Neologiya. Tilda yangi paydo bo‘lgan so‘z va iboralarni (neologizmlarni) o‘rganuvchi soha. Jamiyat rivojlangani sari yangi tushunchalar kirib kelishi natijasida bu bo‘lim doimiy ravishda boyib boradi. Misol: “Smartfon”, “Blokcheyn”, “Kibersavodxonlik” kabi so‘zlar o‘zbek tili leksikasi uchun nisbatan yangi neologizmlar hisoblanadi.

Bo‘lim nomi	O‘rganish obyekti	Misol
1.Semasiologiya	So‘z ma’nosi va uning turlari	Ko‘z – inson a’zosi, buloq ko‘zi (ko‘p ma’nolilik)
2.Onomasiologiya	Nom berish jarayoni	Gul+don=Guldon (idishga nom berish)
3.Etimologiya	So‘zning kelib chiqishi tarixi	“Qalam” – arabcha “qamish” ma’nosidan kelib chiqqan.
4.Frazeologiya	Turg‘un birikmalar va iboralar	“Burni ko‘tarilmoq” – kibrlanish, manmanlik
5.Onomastika	Atoqli otlar (ism va joy nomlari)	“Jayhun”–Amudaryoning tarixiy nomi
6.Leksikografiya	Lug‘at tuzish nazariyasi amaliyoti	“Terminologik lug‘at” muayyan soha atamalarini jamlovchi manba
7.Terminologiya	Maxsus soha (fan, texnika) so‘zlari	“Morfema” tilshunoslikda so‘zning eng kichik ma’noli qismi.
8.Neologiya	Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar	“Coworking”- birgalikda ishlash uchun mo‘ljallangan ochiq maydon (coworking)

Leksikologiya va uning bo‘limlarini o‘rganish orqali biz ona tilimiz naqadar boy ekanligini ko‘rdik. Yuqorida sanab o‘tilgan barcha yo‘nalishning har biri so‘zlar dunyosini har xil tomondan yoritib beradi. Bittasi so‘zni tarixini tushuntirsa, ikkinchisi yangi paydo bo‘lgan zamonaviy atamalarni tahlil qiladi.

Shuni aytish joizki, bu bo‘limlarning barchasi bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, tilimizning lug‘at boyligini tartibga solib turadi. Bu bilimlarni egallash nafaqat tilshunoslar, balki o‘z tilida to‘g‘ri va chiroyli so‘zlashishni istagan har bir kishi uchun foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent “Universitet”, 2006.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: “Talqin”, 2005.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
5. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili.-Toshknet: “Tafakkur bo'stoni”, 2018.